

**SURXONDARYO VİLOYATIDA AHOLİ TURMİŞH DARAJASI,  
DEMOGRAFIYASI, İJTİMOİY HOLATI**

*Allamurodov Akbar Ravshan o'g'li*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Email: [akbarallamurodov483@gmail.com](mailto:akbarallamurodov483@gmail.com)*

*Telefon raqami: +99899 505 53 68*

*Ergashev Davron Sultonmurod o'g'li*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Email: [ergashev davronbek179@gmail.com](mailto:ergashev davronbek179@gmail.com)*

*Telefon raqami: +998930965003*

*Abdug'afforov Sayfiddin Mamatmo'min o'g'li*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*


*Email: [sayfiddinabdigapparov@gmail.com](mailto:sayfiddinabdigapparov@gmail.com)*

*Telefon raqami: +998 93 358 71 12*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining mustaqillikdan keyingi o'zgarishlar aholisi ,demografik holati,ijtimoiy turmushi,iqtisodiy ahvoli manbalar asosida yoritilgan bo'lib hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021-yil 1- yanvar holatiga 2681,0 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning yanvardekabr oylarida 51,8 ming kishiga yoki 1,9 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 971,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,2 %), qishloq aholisi soni 1709,6 ming kishini (63,8 %) tashkil etdi. Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 77,0 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi<sup>1</sup>. Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 76,5 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi. Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Termiz shahri 1,8 % ni, Denov tumani 2,0 % ni va Sariosiyo 1,8 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qiziriq tumanida -1,6 % ni tashkil etdi. Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 74,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 28,1 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1

promillega oshgan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 28,0 promille bo‘lgan) Tug‘ilish koeffitsiyenti. 2019- yilning mos davriga nisbatan jumladan. Termiz shahrida (30,6 promilledan 22,6 promillega), Oltinsoy (28,8 promilledan 28,0 promilega) ga kuzatildi. Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,9 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,1 promille bo‘lgan). O‘lim koeffitsiyenti. 2019-yilning mos davriga nisbatan ko‘payishi Termiz sh. (5,5 promilledan 3,6 promillega), Denov (4,5 promilledan 4,0 promillega), Angor (4,8 promilledan 4,5 promillega), Jarqo‘rg‘on (4,9 promilledan 4,4 promillega) tumanlarida kuzatildi. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 11,9 ming nafar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, vafot etganlarning 62,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,9 % i o‘sintalardan, 4,0 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 % i ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 7,4 % i nafas olish a’zolari kasalliklaridan 1,5 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan. Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,1 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,3 % i nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 14,0 % i tug‘ma anomaliyalardan va 5,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



1.<https://surxondaryo.uz/files/>

Surxondaryo viloyati aholi umumiylarining katta qismi mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (jami aholi umumiylarining 64,7 % i) hisobiga shakllandi, bu yollanma ishchilarning daromadlari (18,7 %) va mustaqil ravishda band bo‘lishdan<sup>2</sup> olingan daromadlarni (46,0 %) o‘z ichiga oladi<sup>2</sup>.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,Surxondaryo viloyatida ya’ni markazi shaharlarda aholi ko’chilikni tashkil etadi ammo,tog’li hududlarda aholi juda ozchilikni tashkil etib o’rtacha 2021-yil holatiga ko’ra,2mln200kishidan oshiqroq bo’lib hisoblannar ekan .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ro’ziev A. Surxondaryo viloyati. – T., 1996.
2. Soliev A.S., Qarshiboeva L., Qishloq yoki qishloq aholi punkitlarimarkaz, qishloq asosi.-T., 1990 y.
3. UBAYDULLAEVA R., ATA-MIRZAEV O., UMAROVA N. DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA O`ZBEKISTON BANDLIK. -T.;UNIVERSITETI, 2006 YIL.
4. QISHLOQLARNING DEMOGRAFIYASI. PROF.A.S.SOLIYEV TAHRIRI OSTIDA. -T.,6.2005 YIL
- 5.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
- 7.Dollar.uz saytidan.
- 8.Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi.-T.:O‘zbekiston, 2005.
- 9..Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.
- 10.Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.

---

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi>